

**O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA
RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

Amanov Akram Mirzayevich
Toshkent moliya instituti,
"Soliqlar va soliqqa tortish"
kafedrası professori

Annotatsiya. Maqolada soliq ma’muriyatchiligining raqamli iqtisodiyotga o‘tishini jadallashtirish hamda soliq to‘lovchilarga elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, soliq ma’muriyatchiligi, raqamli iqtisodiyot, soliq tizimini raqamlashtirish

Аннотация. В статье даны рекомендации по ускорению перехода налогового администрирования на цифровую экономику, а также расширению спектра и повышению качества электронных услуг для налогоплательщиков.

Ключевые слова: экономические реформы, налоговое администрирование, цифровая экономика, цифровизация налоговой системы

Annotation. The article provides recommendations for accelerating the transition of tax administration to the digital economy, as well as expanding the range and improving the quality of electronic services for taxpayers.

Keywords: economic reforms, tax administration, digital economy, digitization of the tax system

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar, xususan soliq tizimi modernizatsiyasi yuzasidan keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ijobiy yakuni aholi ijtimoiy farovonligini oshirish maqsadida davlat soliq siyosati vazifalarini to‘liq va samarali ijrosining ta’minlanishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo‘llarini tadqiq qilish muhim masalalardan hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun qulay, tushunarli va puxta ishlab chiqilgan soliq tizimi beqiyos ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida hozirgi paytda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechishni, davlat tizmining uzluksiz faoliyat yuritishi uchun byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash, yirik investitsiya loyihalarini iqtisodiyotimizga kiritmoqchi bo‘layotgan investorlar uchun qulay soliq tizimini yaratish, barcha biznes toifalari uchun soliqqa tortishni soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish, shu asosda ishlab chiqarishni, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hamda kichik korxonalar

ham qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tishini rag‘batlantirish zarurligini ta’kidladi.¹

Mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida soliq tizimini isloh qilishda yuksak darajadagi ijobiy siljishlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy g‘oya tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik prinsiplariga asoslangan yangi soliq tizimini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda yurtimiz demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgangan ilg‘or g‘oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda soliq sohasida ham mutlaqo yangi bo‘lgan adolatli, shaffof va izchil hamda hamkorlik tamoyillariga amal qiladigan samarali tizim yaratildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar zimmasidagi soliqlar yukini kamaytirib, fuqarolar daromadini oshirish, pirovardida ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga izchil soliq ma’muriyatchiligini joriy etish orqali erishilmoqda.

Soliq organlari ma’muriyatchiligidagi tushumlar 2021 yilda 127,9 trln. so‘mni tashkil etdi. 2020 yil bilan solishtirganda ular 24,3 trln. so‘mga (+23,5 %) oshdi. Xususan, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha tushumlar 82,3 trln. so‘mni tashkil etdi (o‘tgan yil bilan solishtirganda o‘shish – 14,6 trln. so‘m). Bojxona organlari ma’muriyatchiligidagi tushumlar 2021 yilda 8,5 trln. so‘mga (+34,5 %) oshib, 33,2 trln. so‘mni tashkil etdi. Byudjetga daromadlar kelib tushishining oshishiga iqtisodiy o‘shish bilan bir qatorda qimmatbaho metallarning yuqori jahon narxlari saqlanishi, karantin cheklovlarining yumshatilishi, soliq nazorati va ma’muriyatchiligining yangi dastaklari ta’sir ko‘rsatdi.

Hozirda soliq tizimini raqamli iqtisodiyotga o‘tishini jadallashtirish maqsadida soliq organlarining axborot tizimlari majmui to‘liq yagona platformaga o‘tkazilmoqda. Buning natijasida, ma’lumotlarni kiritish, to‘plash, tahlil qilish tizimlari maqbullashadi, soliq to‘lovchilarning hisobot topshirish jarayoni 5-7 barobargacha yengillashadi, munosabatlarda inson omili aralashuvini 60 foizga qisqaradi, soliq ma’muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha imkoniyatlar yuzaga keladi.

2019 yilning 30 dekabr kuni yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, 120 dan ortiq yangi qoida amaliyotga kiritildi. Soliqlar soni 13 tadan 9 taga, mol-mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga, qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Ish haqiga nisbatan soliq yuki qariyb 2 baravar kamaytirildi.

Tabiiy ravishda savol tug‘iladi: ko‘rilgan bunday choralardan fuqarolar, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar qanday manfaat ko‘rmoqda? Tahlillarga tayanib

¹ <http://uza.uz>

aytadigan bo‘lsak, keyingi to‘rt yilda soliq tushumlari 4 baravar ko‘payib, qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar soni 6 mingdan 152 mingtaga yetdi. Eng muhimi, o‘zgarishlarni har bir fuqaro, har bir tadbirkorlik sub‘ekti his qilmoqda. Chunki, yaqinlashgan tadbirkorlarga og‘ir yuk bo‘lib kelgan Pensiya, Maktab va Yo‘l jamg‘armalariga 3,2 foizli yig‘imlar bekor qilindi. Ana shular hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili o‘rtacha 6 trillion so‘m miqdoridagi soliq to‘lashdan ozod bo‘ldi va shuncha mablag‘ bugungi kunda o‘zlarida qoldirilmoqda.

Shuningdek, mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Buni aniq misollar orqali ifodalaydigan bo‘lsak, transport sohasida soliq yuki - 3 baravar, oziq-ovqat sanoatida - 2 baravar, to‘qimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa, 20 foizgacha kamaydi. Qolaversa, soliq yukining teng taqsimlanishi va pasayishi natijasida foyda solig‘i to‘lovchilari 15,2 baravarga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilari 36,5 baravarga va yer solig‘i to‘lovchilari 38 baravarga ko‘paydi. Umumlashtirilgan bo‘lsak, soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida ixtiyoriy bajarilish darajasi 80 foizdan 95 foizga oshdi. Yig‘ilayotgan soliq miqdori 2020 yilning oxirgi choragidan boshlab har oyda 10 trillion so‘mdan oshmoqda. O‘zbekiston soliq tizimida shu paytgacha bunday natija kuzatilmagan.

Aholi va biznes uchun qulayliklarni oshirish, inson aralashuvini kamaytirish maqsadida soliq organlari faoliyati izchil raqamlashtirilmoqda. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi ana shu yo‘lda amalga oshirilgan yana bir yirik loyiha bo‘ldi. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi Farmoniga muvofiq, Davlat byudjetidan ajratilgan 100 milliard so‘m evaziga binolar ta’miralanib, uzluksiz elektr ta’minoti qurilmalari, presizion konditsionerlar, katta hajmli server va kompyuterlar bilan jihozlandi.

Axborot tizimlarining samarali va uzluksiz ishlashini ta’minlash, soliq to‘lovchilarga elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki zamonaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni juda tez ortib bormoqda. 2021 yilning o‘zida soliq to‘lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetdan foydalanishlar soni 40,5 milliontani (2020 yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘p), yuborilgan elektron hisobvara-fakturalar soni 33,9 milliontani (2020 yilga nisbatan 1,6 baravar ko‘p), onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali ro‘yxatga olingan cheklar soni 417,4 milliontani (2020 yilga nisbatan 4 baravar ko‘p) tashkil etdi.²

Ma’lumotlarni qayta ishlash markazida giperkonvergent texnologiyasi yo‘lga qo‘yildi va u axborot tizimlariga yuklama hajmini serverlararo taqsimlab, ularning uzluksiz faoliyatini ta’minlab kelmoqda.

² <https://soliq.uz/press-services>

Natijada markaz quvvati 8 martaga oshdi, elektron xizmatlar ko‘lami kengaydi. Shaxsiy kartochkalarda saldo qatorlarini hisoblash kabi murakkab jarayonlar 10 baravar tezlashdi. Masalan, ilgari respublika bo‘yicha hisoblashga 24 soat ketgan bo‘lsa, endilikda bu jarayon 2-3 soatda amalga oshirilmoqda. Bu yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Kiberhujumdan himoya, biznes-tahlil texnologiyalari joriy qilindi. “E-ijara”, “E-imtiyoz”, “Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari”, “Soliq tekshiruvlari”, “Avtomatlashtirilgan kameral nazorat tizimi”, “Soliq uzilishi koeffitsienti”, “K-Savdo” kabi yangi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqildi. “Soliq” mobil ilovasining funksional imkoniyatlari kengaytirildi. Xususan, kiberhujumlarni oldini olish bo‘yicha “WAF” dasturiy-apparat majmuasining tatbiq etilishi tufayli oyiga taxminan 100 mingdan ortiq hujumlarning oldi olinmoqda.

Ayni kezda 99,9 foiz hisob fakturalar elektron tarzda topshirilyapti va qabul qilinyapti. Savol tug‘ilishi mumkin, nega 100 foiz emas? Chunki, 0,1 foizi bu elektron hisobot topshirishi qonun tomonidan taqiqlangan tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Demak, biz bu masalada amalda to‘liq 100 foizlik natijaga erishdik. Hatto, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Markaziy bankka sotayotgan oltin bo‘yicha hisobvaraqq-fakturalari ham elektron tizim orqali topshirilayotgani uning shaffoflashib borayotganining amaliy tasdig‘i desa bo‘ladi.

Barcha tadbirkorlik sub‘ektlarining ro‘yxatga olish ma‘lumotlari qayta ko‘rib chiqilib, undagi xato va kamchiliklar bartaraf etilishi hamda boshqa vazirlik hamda idoralar ma‘lumotlari bilan birxillashtirilishi ta‘minlandi.

Soliq islohotlarini amaliyotga joriy etish bilan bir qatorda soliq siyosatining huquqiy asosi hisoblanadigan Soliq kodeksini ham takomillashtirish, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda qayta ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. 2019 yil 30 dekabrda O‘RQ-599-son qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahriri tasdiqlandi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 71 ta bob 483 ta moddadan iborat bo‘lib, soliq qonunchiligiga quyidagi yangiliklar joriy etildi:

Birinchi, soliq organlarining ustuvor vazifalari sifatida soliq to‘lovchilar bilan hamkorlik asosida ish yuritish prinsipi joriy qilindi. Ya‘ni, soliq organlari soliq to‘lovchilar bilan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini to‘g‘ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shartligi belgilab qo‘yildi.

Ikkinchi, soliqlar va yig‘imlarning soni va turlari, shuningdek alohida soliq rejimlari optimallashtirildi.

Xususan 13 ta soliq va boshqa majburiy to‘lovlar soni 9 taga tushirildi.

Uchinchi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarib berish tizimi tubdan o‘zgartirildi, ya‘ni soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida ijro etgan soliq to‘lovchilarga 2020 yilning 1 iyulidan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hosil bo‘lgan

ortiqcha summani, ya'ni "manfiy" qoldiq summasini to'liqligicha qaytarish tartibi joriy etildi. Shu davrgacha aalda bo'lgan Soliq kodeksiga asosan qo'shilgan qiymat solig'i faqatgina "manfiy" qoldig'i mavjud eksportyorlarga qaytarib kelingan.

Misol uchun, 2019 yilning 10 oyida mahsulotini eksport qiluvchilarga 1,3 trln.so'm mablag' davlat byudjetidan qaytarib berilgan. Ammo, boshqa korxonalar tomonidan joriy yilning shu davrida 1,6 trln.so'm miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy qoldiq summasi mavjud bo'la turib, qaytarib berilmagan.

QQS bo'yicha yana bir muhim yangilik-asosiy vositalar hamda ko'chmas mulk ob'ektlari xarid qilinganda yoki yangidan barpo etilganda qo'shilgan qiymat solig'ini bir yo'la hisobga olinishini nazarda tutuvchi tartib joriy etildi.

To'rtinchidan, soliq qarzdorligi debitorlaridan undirib olinar edi. Ushbu tartibni bekor qilinishi soliq qarzini uchinchi shaxs hisobidan undirilishiga chek qo'yilib ular tomonidan o'zlarining mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etish imkonini beradi.

Beshinchidan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksida kollegial organlar ishtirokisiz soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini taqdim etishning yangi tartibi joriy qilindi.

Bunda deputatlarga berilgan vakolatlarni yanada oshirgan holda, mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar bo'yicha qarzdorligini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash huquqini berish Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan taqdim etilishi belgilab olindi.

Soliq to'lovchilarni ortiqcha sarsongarchiligini oldini olish maqsadida respublika byudjetiga tushadigan soliqlar bo'yicha soliq qarzdorligini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash yuzasidan arizani o'zlari hisobda turgan hududdagi soliq organlari orqali Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etiladi.

Soliq ma'murchiligining izchilligini ta'minlash maqsadida foyda solig'ining bo'nak to'lovlari bo'yicha ma'lumotnoma bekor qilindi. Mazkur chora soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligini ijro qilishga xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va Jahon bankining har yillik "Biznesni yuritish" hisobotida O'zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalari uchun o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha "nol" foiz miqdorida stavka joriy qilindi. Mazkur soliq stavkasining qo'llanilishi uchun qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari realizatsiya qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 90 foizdan ortiqni tashkil etishi kerak.

Soliq siyosatida bo'layotgan o'zgartirishlar natijasida, ya'ni tadbirkorlik sub'ektlarining soliq yukini kamaytirilishi natijasida davlat byudjeti daromadlarini shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Soliq ma'muriyatchiligi borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar soliqlarni yuqori darajada belgilab emas, balki qonuniy faoliyat yuritadigan tadbirkorlik sub'ektlari sonini oshirgan holda soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, soliq ma'muriyatchiligi yanada samarali ishlashi uchun davlat soliq xizmati organlari hamda mahalliy hokimlik organlari bilan hamkorlikda quyidagi tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirib borishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- aholi mehnatini muhofaza qilish, ularning ertangi kuni, ya'ni davlat tomonidan kafolatlangan pensiya to'lovlari bilan ta'minlanishi uchun xususiy sektorda norasmiy yollanib ishlayotgan fuqarolarni legallashtirish;

- tadbirkorlik sub'ektlariga yanada ko'proq erkinliklar berish hamda ularni rivojlantirish hisobiga byudjet daromadlarida soliq tushumlarini salmog'ini oshirish.

2022 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'i va aksiz solig'ini davlat soliq qo'mitasida mavjud elektron ma'lumotlar asosida avtomat ravishda shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Aytish mumkinki, hukumatimizning soliq ma'muriyatchiligi tizimida olib borayotgan iqtisodiy islohotlari mamlakatimizda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga, hamkorlikga chorlovchi raqobat tamoyillarini joriy etishga, soliq turlari bo'yicha imtiyozlar berish amaliyotini tartibga solishga, soliq to'lovchilarga soliqdan qochishni emas, balki soliq to'lagani uchun rag'batlantirish chora-tadbirlarini joriy etishga hamda yangi samarali soliq islohotlarini tizimli joriy qilishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6098-son [Farmoni](#).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 martdagi «Jahon banki ishtirokidagi «Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-178-son [qarori](#).
3. Аманов А.М. Определение налоговой задолженности // Вестник современной науки. Научно-теоретический журнал. №4. 2016. Часть 1. Стр. 77-79
4. Аманов А.М. Приоритетные направления совершенствования налоговой системы Республики Узбекистан // ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика журнал. №5. 2017. Стр. 17-20.
5. Аманов А.М. Сельское хозяйство республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики // «Интернаука»: научный журнал – № 19(195). Часть 4. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. Стр. 16-19.